



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 178 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbanovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MILLIY MAFKURANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ahmadov Olimjon Shodmonovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Esanova Mehriqul Qurbanazarovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
70110401 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Milliy mafkuraning pedagogik mohiyati, uning shaxs kamolotidagi o'rni hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kompetensiyaviy, aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar asosida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va refleksiv yondashuv asosida takomillashtirilgan metodik model tavsiya etilgan. Mazkur model bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati, Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: milliy mafkura, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik mexanizm, kompetensiyaviy yondashuv, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, pedagogik kompetentlik, innovatsion texnologiyalar, aksiologik yondashuv, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for improving the pedagogical mechanisms of developing national ideology among prospective primary school teachers. The pedagogical essence of national ideology, its role in personality development, and its significance in strengthening the professional competence of future teachers are scientifically analyzed. Based on competency-based, axiological, learner-centered, and systemic approaches, effective pedagogical mechanisms for fostering national ideology are proposed. An improved methodological model integrating innovative educational technologies, interactive teaching methods, spiritual and educational activities, and reflective practices is presented. The proposed model aims to develop national identity, civic responsibility, patriotism, respect for national and universal values, and professional competencies among prospective primary school teachers. The research findings provide practical recommendations for improving the professional training system in higher pedagogical education institutions and enhancing the quality of teacher education.

Key words: national ideology, primary education, prospective primary school teachers, pedagogical mechanisms, competency-based approach, national values, spiritual education, pedagogical competence, innovative educational technologies, axiological approach, reflective practice, professional training.



Аннотация: В статье раскрываются теоретико-методологические основы совершенствования педагогических механизмов формирования национальной идеологии у будущих учителей начальных классов. Научно обоснованы педагогическая сущность национальной идеологии, её значение в развитии личности и профессиональной подготовке будущих педагогов. На основе компетентностного, аксиологического, личностно-ориентированного и системного подходов разработаны педагогические механизмы формирования национальной идеологии. Предложена усовершенствованная методическая модель, основанная на инновационных педагогических технологиях, интерактивных методах обучения, духовно-просветительской деятельности и рефлексивном подходе. Представленная модель способствует развитию национального самосознания, гражданской ответственности, патриотизма, уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, а также профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании содержания профессиональной подготовки будущих педагогов в системе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: национальная идеология, начальное образование, будущий учитель, педагогический механизм, компетентностный подход, национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, педагогическая компетентность, инновационные технологии, аксиологический подход, рефлексия, профессиональная подготовка.

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda dunyoda kechayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy o'zligini anglash va mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasini ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini belgilovchi muhim bosqich bo'lib, unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning kasbiy hamda mafkuraviy tayyorgarligi ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, ma'naviy barkamollik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini milliy mafkura asosida tayyorlash, ularda milliy g'oya va qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish hamda mazkur qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy mafkura va shaxs ma'naviyatining nazariy asoslari Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida muhim o'rin egallaydi. Xususan, Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadini komil insonni voyaga yetkazish bilan bog'laydi hamda jamiyat taraqqiyotida ilm, axloq va ezgulikning ustuvorligini ta'kidlaydi. Abu Ali ibn Sino inson kamolotida ta'lim va tarbiyaning uzviyligini asoslab, shaxsning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan izohlagan. Alisher Navoiy esa yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik va ma'rifat ruhida tarbiyalash g'oyalarini ilgari surgan bo'lib, uning pedagogik qarashlari bugungi milliy tarbiya konsepsiyasining muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalar milliy mafkurani shakllantirishning muhim ilmiy manbai sifatida e'tirof etiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Ahmad Donish asarlarida ta'limni millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholash, milliy ongini rivojlantirish, Vatanga muhabbat va ma'naviy yetuklikni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik tamoyillari chuqur asoslangan bo'lsa, Fitratning ilmiy merosida milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvor o'rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlari tomonidan milliy mafkura, ma'naviy tarbiya va pedagogik kompetentlik masalalari yangi ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq qilindi. Jumladan, N.M. Egamberdiyeva shaxsning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish hamda pedagogik jarayonning tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

R.H. Jo'rayev, U.N. Nishonaliyev, O. Musurmonova, Sh. Qurbonov, B. Xodjayev, M. Ochilov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlik, uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlarni shakllantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari yoritilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham fuqarolik tarbiyasi, milliy identifikatsiya, qadriyatlar ta'limi va o'qituvchi kompetentligini rivojlantirish masalalari keng tadqiq etilgan. John Dewey ta'limni demokratik jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida baholab, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish zarurligini asoslagan. Lev Vygotskiyning sotsiomadaniy rivojlanish nazariyasida shaxsning kamoloti ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Jerome Bruner ta'lim mazmunini madaniy

tajribani avloddan avlodga uzatish mexanizmi sifatida izohlagan. Paulo Freire esa ta'limni shaxsning ijtimoiy faolligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantiruvchi omil sifatida talqin qilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, John Raven, Philippe Perrenoud, David McClelland kabi olimlarning ilmiy ishlanmalarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlik faqat nazariy bilimlar yig'indisi emas, balki kasbiy faoliyatda bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlarni samarali qo'llash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda milliy mafkura komponentlarini shakllantirish uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, UNESCO, UNICEF hamda OECD tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida global fuqarolik, madaniyatlararo muloqot, milliy identifikatsiya, bag'rikenglik va barqaror rivojlanish qadriyatlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu yondashuvlar milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy va fuqarolik kompetentligini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogika fanining konseptual yondashuvlari, milliy va xalqaro ta'lim standartlari hamda ilmiy tadqiqot metodologiyasi tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot metodologik jihatdan shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, aksiologik, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv va integrativ yondashuvlar uyg'unligi asosida tashkil etildi. Mazkur yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirish jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va natijalarini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, shuningdek, ta'lim va tarbiya sohasiga oid Prezident farmonlari, qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi. Shuningdek, UNESCO, UNICEF va OECD tomonidan ilgari surilgan ta'limning barqaror rivojlanishi, fuqarolik ta'limi va qadriyatlar ta'limiga oid konseptual yondashuvlardan metodologik manba sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim shaxsning intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning Vatanga muhabbati, milliy o'zligini anglash, tarixiy xotirasi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligi shakllana boshlaydi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati esa, avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati, pedagogik kompetentligi va mafkuraviy tayyorgarligiga bog'liq. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy mafkurani shakllantirishning ilmiy asoslangan pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanida shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shunga qaramasdan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari, ularni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda ushbu jarayon samaradorligini baholash mezonlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Milliy mafkura nafaqat ijtimoiy ong shakli, balki ta'lim-tarbiya mazmunining muhim tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'ladi. U shaxsda milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat, Vatanga sadoqat, bag'rikenglik, fuqarolik mas'uliyati va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida milliy mafkura komponentlarini tizimli ravishda rivojlantirish ta'limning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi va pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi.

Milliy mafkura har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy qadriyatlari, milliy manfaatlar, urf-odatlar va kelajak taraqqiyot maqsadlarini o'zida mujassamlashtirgan g'oyalar tizimidir. U jamiyatning ma'naviy hayotini tartibga soluvchi, fuqarolarning dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimida milliy mafkura yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning metodologik asosi hisoblanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan milliy mafkura shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tizim bo'lib, uning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish hamda zamonaviy bilimlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Shu jihatdan milliy mafkura pedagogik jarayonning maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan didaktik hamda tarbiyaviy omil hisoblanadi.



Milliy mafkuraning pedagogik mohiyati, avvalo, shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Chunki pedagogik faoliyatning bosh maqsadi faqatgina bilim berish emas, balki ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va milliy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashdir. Bu esa bo'lajak pedagoglardan yuqori mafkuraviy tayyorgarlikni, milliy qadriyatlarni chuqur bilishni va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qila olish kompetensiyasini talab etadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimi shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichi hisoblanib, aynan shu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, Vatanga muhabbati va milliy o'zligini anglash asoslari shakllanadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini milliy mafkura ruhida tayyorlash ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri sanaladi. O'qituvchining shaxsiy e'tiqodi, kasbiy madaniyati va mafkuraviy savodxonligi o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Milliy mafkuraning pedagogik mohiyati kompetensiyaviy yondashuv bilan ham uzviy bog'liq. Zamonaviy pedagogika bo'lajak o'qituvchini nafaqat bilim egasi, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo'llay oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan, innovatsion faoliyat yurita oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashni nazarda tutadi. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini boyitish, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hamda shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy mafkuraning pedagogik mazmuni quyidagi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. **Kognitiv komponent** – milliy g'oya, milliy qadriyatlar, tarix, madaniyat va ma'naviy meros haqidagi bilimlarni egallash;
2. **Aksiologik komponent** – Vatanga muhabbat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati, bag'rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini qadrlash;
3. **Motivatsion komponent** – kasbiy faoliyatda milliy manfaatlarni himoya qilishga ichki ehtiyoj va barqaror motivlarni shakllantirish;
4. **Faoliyat komponenti** – milliy mafkura g'oyalarini pedagogik faoliyatda qo'llash, tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etish hamda innovatsion metodlardan foydalanish;
5. **Refleksiv komponent** – o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, ma'naviy rivojlanishini baholash va uzluksiz o'zini takomillashtirishga intilish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirish pedagogik jarayoni tizimli, izchil va uzluksiz tashkil etilishi lozim. Mazkur jarayon ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan boyitish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol metodlardan foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Natijada bo'lajak o'qituvchi milliy o'zligini chuqur anglagan, Vatanga sadoqatli, fuqarolik pozitsiyasiga ega, yuksak ma'naviyatli, kasbiy kompetentligi rivojlangan va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qila oladigan raqobatbardosh pedagog sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularda milliy mafkura va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan pedagogik kompetentlikni rivojlantirish hamda boshlang'ich ta'lim sifati va tarbiyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy ishlanma pedagogika nazariyasi va amaliyoti rivojiga hissa qo'shish bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida milliy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim yondashuvlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan metodik asos sifatida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, milliy mafkuraning pedagogik mohiyati shaxsning intellektual, ma'naviy, axloqiy va fuqarolik sifatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. U bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ma'naviy yetuk, milliy o'zligini anglagan, Vatanga sadoqatli va yuksak pedagogik kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashning muhim nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Tadqiqot davomida milliy mafkuraning pedagogik mohiyati, uning bo'lajak pedagog shaxsining ma'naviy-axloqiy kamoloti, kasbiy kompetentligini rivojlantirish va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi o'рни tizimli tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy mafkurani shakllantirish jarayoni faqat ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan cheklanmasdan, oliy ta'limning o'quv, tarbiyaviy va amaliy faoliyatiga integratsiyalashgan holda tashkil etilgandagina



yuqori samaradorlikka erishiladi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy, aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning uyg'unligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkura kompetentligini rivojlantirishning muhim metodologik omili ekanligi aniqlandi.

1. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejalari va fan dasturlariga "Milliy mafkura va pedagogik qadriyatlar" mavzularini integratsiyalash tavsiya etiladi.
2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida milliy mafkurani shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus modul va o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.
3. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va fuqarolik tarbiyasiga bag'ishlangan interfaol seminarlar, treninglar, mahorat darslari hamda loyiha faoliyatini muntazam tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son1 "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son2 "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 352 b.
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 288 b.
6. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
7. Ibn Sino A. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981. – 304 b.
8. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011. – 256 b.
9. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 286 b.
10. Egamberdiyeva N.M. Pedagogikaning ijtimoiy nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 320 b.
11. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.
12. Jo'rayev R.X. Pedagogik ta'lim nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 356 b.
13. Nishonaliyev U.N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 284 b.
14. Dewey J. Democracy and Education. – New York: The Macmillan Company, 1916. – 434 p.
15. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

1 <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 <https://lex.uz/docs/-5841063>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.